



## BAG'DOD TUMANI TARIXI

### Erkinjonova Mubina Elyorjon qizi

Qo'qon universiteti tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19090951>

Aslida qanday Bag'dod yoki Bog'dod? Iroq poytaxti Bag'dod nomi uzoq tarixga ega. Bu nom miloddan avvalgi IX asrlarga oid ossuriy mixxatlarida uchraydi. Bag'dod shahri o'rnida qadimdan odamlar yashab kelgan. Bag'dod toponimining kelib chiqishi haqida har xil qarashlar bor. U o'rta fors tilidagi bog' va dod so'zlaridan olingan bo'lib, Xudo bergan, Xudoning inyomi ma'nosini anglatadi. Qadimgi fors tilida bog' so'zi Xudoni anglatgan. Bu so'z slavyanchada bog, hindchada bhag ko'rinishiga ega bo'lgan. Bog' so'zi qatnashgan boshqa toponimlar ham bor. Afg'onistondagi Bog'lon va Bagram, Erondagi Bog'shan, Gruziyadagi Bagdati shaharlari nomida katta ehtimol bilan ana shu bog' so'zi qatnashgan. Boshqa bir kamroq tarqalgan variant ham bor: bog' – bog', dod – berilgan. Ya'ni sovg'a qilingan, in'om etilgan bog' ma'nosida. Hozirgi Bag'dod shahriga VIII asrda abbosiy xalifa Abu Ja'far Mansur asos solgan. U shaharni Madinatus Salom – tinchlik shahri deb ataydi. Biroq oddiy odamlar shaharni shu joylarning eski nomi bilan atashda davom etadi. XI asrga kelib Bag'dod shaharning asosiy nomiga aylanadi. Shahar nomi fors tilidan arab tiliga o'tgan va tovush o'zgarishlariga uchragan. O'zbek tiliga arabchadan kirgan.

**ASOSIY QISM.** Farg'ona viloyatidagi tumanlardan birining markazi ham Bag'dod deb ataladi. Bag'dod shaharchasi 1894–1962-yillarda Serovo deb nomlangan. Bu nom ruscha bo'lib, mahalliy shaxs emas, balki Rossiya imperiyasi davrida berilgan sun'iy nom ekani qayd etilgan. Ya'ni Serovo-mahalliy tarixiy nom emas, balki mustamlakachilik davrida qo'yilgan nom. Mahalliy xalq, asosan yoshi kattalar orasida shaharchani ba'zan shunday atash hozir ham uchrab turadi. Milliy ensiklopediyada ham, ensiklopedik lug'atda ham Iroq poytaxti va Farg'onadagi tuman nomi Bag'dod shaklida berilgan.

Bag'dod tumani-1926-yilning 29-sentyabrida tashkil topgan. 1962-yil 24-dekabrda Uchko'prik tumaniga qo'shib yuborilgan. Va 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan. Tuman Farg'ona viloyatining markaziy hududida joylashgan bo'lib, 333,3 km.kv maydonni egallaydi. Chegaralarining umumiy uzunligi: 98,1 km. Janubdan Rishton, sharqdan Oltiariq, shimoldan Buvayda, g'arbdan Uchko'prik tumanlari bilan chegaradosh. Tuman hududidan „Qo'qon-Andijon-Qo'qon“ yo'nalishi bo'yicha harakatlanuvchi temiryo'l o'tgan. Bu temiryo'l tarixda XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi Farg'ona vodiysini to'liq nazoratga olgach, asosan xom ashyo (paxta, don) tashish uchun temiryo'l tarmoqlari qurila boshlagan. Markazi-Bag'dod shaharchasi. Hamda Katta Farg'ona kanali ham oqib



o'tgan. Bag'dod tumani qishloqlari hamda Farg'ona vodiysidagi ko'plab qishloqlar haqida yozuvchi shoir Muqimiy o'zining „Sayohatnoma“ asarida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Bag'dod tumani hududi tekislikdan iborat. Janubi-g'arbida toshloqli dasht yerlar bor. Yanvarning o'rtacha temperaturasi  $-3^{\circ}$ , iyulniki  $26^{\circ}$ . Yiliga 180 — 220 mm yog'in tushadi. Tumandan Usmon Yusupov nomli Katta Farg'ona kanali o'tadi. Tuprog'i asosan qo'ng'ir-bo'z tuproq, ayrim joylarda sho'r tuproq uchraydi. Sho'ra, shuvoq, yantoq, qamish, miya, oqbosh, yulg'un va boshqa o'simliklar o'sadi. Bo'ri, tulki, quyon, yumronqoziq va boshqa hayvonlar uchraydi. Aholisi 218 903 kishi (2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra). Aholining o'rtacha zichligi 1 km kvga 580 kishi. Aholisining 110,1 ayollar, 108,8 erkaklardan iborat. Asosan, o'zbeklar (182.850 kishi), bundan tashqari ruslar (34 kishi), tojiklar (350 kishiga yaqin), qirg'izlar (75 kishi) va boshqa millat vakillari (100 dan ortiq kishi) tashkil qiladi. Tuman hududida 3 ta shaharcha, 75 ta qishloq bo'lib, undagi 41 546+ xonadondan 49 189+ oila istiqomat qiladi.

Bag'dod tumanida yetakchi tarmoq-paxtachilik. Paxta tozalash zavodi, don mahsulotlari va qurilish materiallari, mahalliy sanoat kombinatlari, mebel va poyabzal fabrikalari bor. Xo'jaliklarda chorvachilik, bog'dorchilik, pillachilik, polizchilik, sabzavotchilik bilan ham shug'ullanadi. Tumanda 1ta qo'shma korxonaga, 134ta kichik korxonaga va 1ta kooperativ korxonaga mavjud. 48ta ommaviy kutubxonaga, 17ta klub, 12ta madaniyat uyi, 2ta muzey, 745 o'rinli 5ta kasalxonaga, 62ta tibbiyot punktlari bo'lib, ularda 192ta vrach, 1092ta o'rta ma'lumotli tibbiy xodim ishlashdi (2000-yil holatiga ko'ra). 1931-yildan boshlab „Bag'dod hayoti“ tuman gazetasi chiqarila boshlagan (adadi 4000)

Tumanda 6 ta kollej, 1 ta akademik litsey, 1 ta (88-sonli) maxsus maktab-internat, 1 ta „Musiqaga va san'at“ maktabi, 55 ta umumiy o'rta ta'lim maktab (2 tasi IDUMI, 1 tasi IDUM), 36 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 4 ta BO'SM, 1 ta futbol maktabi mavjud. Tumanda 1 ta markaziy va 3 ta qishloq uchastka shifoxonasi 21 ta qishloq vrachlik punkti bor. (2016-yil holatiga ko'ra.) Korxonaga, tashkilot, muassasalar 33 tani tashkil qiladi. Ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchilar soni 2783 ta. Yakka tartibda ish yurituvchi tadbirkorlar soni 1268 ta, yirik korxonalar 11 ta.

Hozir tuman hududida 1ta shaharcha (Bag'dod) va 10ta fuqarolar yig'ini faoliyat yuritadi. Ayni paytda QFY va SHFY hududida 56ta mahalla fuqarolar yig'ini va 75ta qishloq mavjud. Aholi punktlari 59ta.

Bag'dod tumanida bir qator tarixiy va diniy obidalar mavjud bo'lib, ular hududning boy madaniy merosidan dalolat beradi. Jumladan, XVIII asrga oid





**Usmon ibn Ahmad Oqmozor buva ziyoratgohi**, XIX asrga mansub **Suq mozor ziyoratgohi**, shuningdek, Konizar qishlog'ida joylashgan va XV–XVII asrlarga oid **G'avz ul-A'zam pir ziyoratgohi** muhim tarixiy obidalaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, Cho'rindi qishlog'ida joylashgan **A'lam domla masjidi**, Matqulobod qishlog'ida saqlanib qolgan **Katta masjid** hamda Ultarma qishlog'idagi **A'lam buva ziyoratgohi** tumanning diniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Ushbu obidalar asosan ziyoratgohlar (mazorlar) bo'lib, mahalliy aholi uchun muqaddas maskanlar sanaladi.

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, Bag'dod tumani o'zining qulay geografik joylashuvi, boy tarixiy va diniy merosi hamda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan viloyat miqyosida muhim o'rin egallaydi. Tumanda saqlanib qolgan ko'plab tarixiy obidalar, masjid va ziyoratgohlar nafaqat o'tmishdan meros bo'lib qolgan bebaho qadriyatlar, balki xalqimizning ma'naviy hayoti, diniy an'analari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim manbalar hisoblanadi. Ushbu obidalarni asrab-avaylash, ularni o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, Bag'dod tumanida qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq sifatida rivojlanib, aholining bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik sohalarining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi hudud iqtisodiy salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy sohalariga qaratilgan islohotlar aholi turmush darajasini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda, mavjud tabiiy, iqtisodiy va ma'naviy resurslardan oqilona foydalanish, tarixiy merosni asrash va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini uyg'unlashtirish orqali Bag'dod tumanining kelgusida yanada barqaror, raqobatbardosh va izchil rivojlanishiga mustahkam zamin yaratiladi

#### **Manbalar:**

1. „Fанижон солиев бағдод тумани ҳокими этиб тайинланди“. 2024-yil 29-mayda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2024-yil 29-may.
2. „Farg'ona viloyati Bag'dod tumani tashkil etilgan kun“. <http://taqvim.uz/uz>. Taqvim.uz. Qaraldi: 2023-yil 6-fevral.[sayt ishlamaydi]
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
4. Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi. [www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)
5. Karima Ashurova. Bag'dod va bag'dodliklar. — T.: 2016;
6. Bag'dod tumani hokimiyati axborot xizmati <https://bogdod.uz> (Wayback Machine saytida 2021-07-25 sanasida arxivlangan)





7. Шарипова Наргиза Абдукаххаровна. РЕФОРМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ.//CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY VOLUME: 04 ISSUE: 05 | MAY 2023 (ISSN: 2660-6836)
8. Sharipova Nargizakhan Abduqaxxorovna. A look at the history of building schools in Uzbekistan (50-70 years of the 20th century) World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 26, September 2023 ISSN: 2749-361X
9. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80 yillarida Farg'ona vodiysi o'qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari / Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 16 | 2023
10. N. Sharipova, Milliy tarixni o'rganish dolzarbligi masalalari / International Conference on Journal of technical research and development Hosted from Delhi, India 1st dec. 2023
11. Шарипова Наргизахон Абдукаххаровна, Процесс становления педагогических учебных заведений Узбекистана в 1945-1965 гг. / International Conference on Journal of technical research and development Hosted from Delhi, India 1st dec. 2023
12. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O'zbekistonda pedagogik bilim yurtlarining shakllanish jarayoni (1945-1965 yillar)/ Vol. 4 No. 1 (2023): SCIENCE PROMOTION Confrence
13. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O'zbekistonda xorijiy tillarning o'qitilish tarixi/ Vol. 4 No. 1 (2023): SCIENCE PROMOTION Confrence
14. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80 yillarida Farg'ona vodiysi o'qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari/ Vol. 2 No. 16 (2023): Educational Research in Universal Sciences (ERUS)

